

## YOSH OILALARDA YETAKCHILIKNI AYOL TOMONIDAN BOSHQARISHDA MUAMMOLI VAZIYATLARNING KELIB CHIQISHI

Umarova Iroda Bakirovna  
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

*Annotatsiya. Barcha xalqlar uchun yosh oila muammolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish hozirgi psixologiya fanining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur maqolada ayol kishining oilada boshqaruvchanlik va yetakchilikni qo'lga olganda kelib chiqadigan muammolarning muhokamasi yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: oila kodeksi, ayol, oila, farzand tarbiyasi, oilada yetakchilik, erning vazifalari, qo'shxotinlik*

## ORIGIN OF PROBLEM SITUATIONS IN WOMEN'S MANAGEMENT OF LEADERSHIP IN YOUNG FAMILIES

Umarova Iroda Bakirovna  
Doctoral student of Gulistan State University

*Abstract. Research of socio-psychological features of young family problems for all peoples remains one of the current issues of psychology. This article discusses the problems that arise when a woman takes control and leadership in the family.*

*Key words: family code, woman, family, child upbringing, family leadership, husband's duties, bigamy*

## ВОЗНИКНОВЕНИЕ ПРОБЛЕМНЫХ СИТУАЦИЙ В ЖЕНСКОМ УПРАВЛЕНИИ ЛИДЕРСТВОМ В МОЛОДЫХ СЕМЬЯХ

Умарова Ирода Бакировна  
Докторант Гулистанского государственного университета

*Абстракт. Исследование социально-психологических особенностей проблем молодой семьи у всех народов остается одним из актуальных вопросов психологии. В данной статье рассматриваются проблемы, которые возникают, когда женщина берет на себя контроль и лидерство в семье.*

*Ключевые слова: семейный кодекс, женщина, семья, воспитание детей, руководство семьей, обязанности мужа, двоеженство.*

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining 4.2. "Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish" bandida belgilab berilgan ustuvor vazifalar, xususan, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, gender tengligini ta'minlash, davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish, og'ir ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga moddiy, psixologik, tibbiy yordam ko'rsatish, ularni uy-joy va ish bilan ta'minlash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, oilada ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashl borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida xotin-qizlarni ijtimoiy-himoya qilish masalasi yangi bosqichga ko'tarildi. Yangi O'zbekistonni yaratish yo'lida keng ko'lamlı innovatsion faoliyat va bunyodkorlik, yaratuvchanlik harakatining asoschisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Biz bu yil xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'taramiz"[1].

### Adabiyotlar tahlili

Zero, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rnlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Davlat organlari, fuqarolik jamiyati vakillari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash maqsadida Respublika xotin-qizlar jamoatchilik Kengashi o'z ishini boshladi. Kengash tarkibiga hayotiy tajribaga ega yurtdoshlarimiz, deputat va senator ayollar, olim va professorlar hamda jamoatchilik vakillari kiritildi. Kengash xotin-qizlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ularni kerakli bilim va ko'nikmalarga o'qitish, shuningdek, o'z biznesini boshlashlari uchun zarur mablag'

bilan ta'minlash orqali aholi, ayniqsa ayollar va qizlarning turmush darajasi yaxshilanishiga erishish maqsadida tashkil qilindi [2].

Mamlakatimizda olib borilayotgan ana shunday ulkan islohotlarning pirovard maqsadlaridan biri oila, uning tinchligi, farovonligi va baxtli bo'lishi bilan bog'liq.

Agar, jamiyat ijtimoiy munosabatlar yig'indisi bo'lsa, undagi har bir oila tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik natijasida vujudga keladi. Oilaviy munosabatlar esa jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, ma'naviy munosabatlari bilan belgilanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar oilaning mustahkamligi va barqaror rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xuddi shuningdek, jamiyatdagi tinchlik va xotirjamlik, undagi ma'naviy muhit barqarorligi ko'p jihatdan har bir oiladagi munosabatlarda o'zaro muhabbat va hurmat, hamjihatlikka bevosita bog'liqdir.

Oilaviy munosabatlar bus eng muhim ijtimoiy jarayonlardan bo'lib uning tartibga solinishi mamlakatimiz qonunchiligida belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston respublikasining oila kodeksining ikkinchi va uchinchi moddalarida oiladagi er va xotining munosabatlariga oid ko'rsatmalar aniq belgilab berilgan.

Unda belgilangankanki:

2-modda. Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

3-modda. Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqliligi

Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar. Nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmaydi [3].

Natijalar

Ushbu tartiblarning kodeks darajasigacha belgilanishi oila munosabatlarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Agar oilada shaxslararo munosabatlar madaniyati shakllangan bo'lsa, oila a'zolarining jamiyatda o'z o'rnini, qadrini topishga o'z istak va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Agar unda oilaviy munosabatlar yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa yoki shakllanmasa unda turli muammolar va nizolar shakllanadi. Oilada totuvlik yo'qoladi va unda noxush psixologik muhit hosil bo'ladi. Oila a'zolari jamiyatda ham o'z o'rinlarini topa olmaydilar. Eng muhimi, bunday holat farzandlar kamolotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Muqaddas dinimizda ham, oila mustahkamligiga katta e'tibor qaratilgan. Chunki oila jamiyat asosi va hayot davomchisi bo'lgan farzandlar kamol topadigan tarbiya maskanidir. Shu ma'noda qachon oilalar salohiyatli bo'lsa, bunday oilalardan tashkil topgan jamiyat ham salohiyatli bo'ladi. Shuning uchun ham oilaga iymon, muhabbat, ta'lim-tarbiya va baxtli hayot sari yo'llovchi maskan sifatida qarash muhimdir.

Bugungi kunda barkamol insonni shakllanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishi o'ziga xos xususiyat va imkoniyat, qonuniyatlarga egadir. Yoshlarning shakllanishi oiladan boshlanadi, bunday oila esa, ta'lim-tarbiyaning boshlang'ich mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya, shaxslararo munosabatlar, milliy an'ana va qadriyatlar, urf-odatlar hamda ijtimoiy muammolarning kelib chiqishi hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari oilada o'rganiladi. Shuning uchun ham oila va nikoh munosabatlarini o'rganishda oilaviy munosabatlarga alohida e'tibor berish o'ta muhimdir [6].

Bizning mintalitetimizga muvofiq oilada erkak kishi rahnamo va boshqaruvchidir. Bunday oila shakli dunyo qonuniyatlarida ijobiy isbotini topgan tartibdir. Erkakman degan, belida belbog'i bor yigit albatta oilani boshlig'i bo'lmog'i darkor.

Ammo zamonning zayli bilan gender tengligi deya bong urilayotgan talqin niqobi ostida ayrim qo'shtirnoqdagi ayollar oilaning boshqaruvini qo'lga olganlar.

Bizning fikrimizcha oilada ayolning boshli va boshqaruvchi bo'lishdek noto'g'ri tushunchaga bir nechta omillar sababchi bo'ladi:

erkak kishining oila boshqaruviga tayyor emasligi va uning oiladagi funksiyalarini ijro etolmasligi

yoki etmasligi;

erkak kishining oila oldidagi vazifalarini mas'uliyatsizlarcha bajarmasligi. Bunda ayol kishi majburlikdan, o'zi xohlamagan holatda oila boshlig'i va boquvchisiga aylanadi;

yana bir katta muammo ikki-xotinlikdir. Garchi bu holat diniy va dunyoviy nuqtai nazarda salbiy deb baholanmasa-da, oilada doimiy kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu tabiiy tanlanish qonuniyati asosida erkakning oiladagi nufuzini tushiradi hamda boshqaruvni qo'ldan yo'qotadi. Tinchlikni evaziga boshqaruvni topshiradi.

Muhokama

Yuqorida keltirilgan sabablar erkak kishining oiladagi vazifasi va o'rnini adekvat darajada belgilamaganidan kelib chiqqanligini keltirdik. Bu degani oilada ayol kishi oila boshqaruvida egalik qilishiga faqatgina erkak kishi aybdor yoki sababchi degani emas, ammo erkak kishi o'zining yaralganlik xossalaridan kelib chiqib o'z o'rnini belgilay olmagani uning aybi degan mulohazada yuqoridagi fikrlarni avvalroq bayon qildik.

Tanganing ikkinchi tomoni borligidek masala bir tomonlama ayblov bilan yechim topmaydi va bir tomonni isloh qilgan bilan hammasi isloh bo'lmaydi. Jamiyatda eriga itoat qilmaydigan, qonuniy va shar'iy talablarini bajarmaydigan ayollar talaygina va ko'payib bormoqda.

Biz mavzuga yondashuvda muammoni kelib chiqish sabablarini qisqacha o'rgandik va endilikda boshqaruvdagi faollikni ayol qo'liga olganda kelib chiqadigan muammolarga to'xtalamiz.

Kishilik jamiyatining har qanday tuzumida, quldorlikda to demokratik jamiyatgacha rahbarlar mavjud bo'lgan va boshqaruv bir kishining zimmasida bo'lgan. Hattoki jonzotlar orasida ham to'da sardori poda boshlig'i borligi ilmda isbotlangan. Boshliq xoh ayol bo'lsin xoh erkak bo'lsin u doim bitta bo'lib kelgan.

Bizning millatimiz va dinimiz, tarbiyamizdan kelib chiqqan holda aytadigan bo'lsak oilada erkak kishi rahnamo, boshqaruvchi bo'lib kelgan va shunday bo'lmog'i darkor. Shunday bo'lmagan taqdirda esa oila a'zolarining tarqoqligi, fikrlarning har tomondan shakllanishi, qarma-qarshi tomonlarning paydo bo'lishi rivojlanadi. Bu esa o'sha oilaning parokanda bo'lishi va uning muhitida katta bo'lgan farzandlarning xarakterida turg'unsizlikning shakllanishiga olib keladi.

Nima qilish kerak?

Sir emaski, uyda ayol erkakka g'oya va maslahat beradi, qo'llab-quvvatlaydi, ilhomlantiradi, maqsad sari yo'naltiradi, rag'batlantiradi va hokazo. Erkak esa bulardan kuch-quvvat olib, ta'bir joiz bo'lsa, tog'ni talqon qiladi, qahramonliklar ko'rsatadi. Yoki, bir donishmand so'zi bilan aytsak, "Erning jamiyatga ko'rsatgan ta'siri – xotinning erga o'tkazgan ta'sirining aksidir".

Xulosa

Fikrimizni umumlashtirib shuni ayta olamizki ayol ovozinin nafisligi bilan eridan ustun turmog'i lozim [4]. Ayol ovozinin mayin bo'lmoqligi esa uning botiniga ko'p jihatdan bog'liq. Botinida bo'ronlar guvullab turgan ayolning ovoziyam shiddatli, tashvishli bo'ladi. Ayolning birinchi vazifasi oilani boshqarish emas, kelajak uchun sog'lom nasllar berish, issiq mehri, tengsiz jozibasiga qorilgan go'zal tarbiyasi bilan millatni oyoqqa turg'azishdan iborat. Buning uchun ayolning o'zi sog'lom bo'lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.-Toshkent, "Adolat",2018. B.22-23

2. Borisenkov V.P. Gukalenko O.V. Institut semi i semeynaya politika v sovremennoy Rossii: problemy, tendensii i perspektivy. Internet jurnal «Naukovedenie» vьypusk 5 (24) sentabr-oktabr 2014// <http://naukovedenie.ru>

3. O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. – 2019 yil 2 sentabr.

4. Fazilatli avlod. Uzluksiz ma'naviy tarbiya trilogiyasi. 3-qism. [Matn]: 7-18 yoshli bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. /Tuzuvchi mualliflar: A.Qodirov, M.Quronov, O.Musurmanova va boshqalar.-Toshkent: Muharrir nashriyoti. 20019.-256 b. (2020 yil,yanvar)

5. Violence against women. Key facts. World Health Organization, <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/violenceagainst-women>

6. Alimardonova R.K. Yosh kelin-kuyov o'rtasidagi sog'lom psixologik

munosabatlarni ta'minlashning ijtimoiy-etnik asoslari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori